

**MINTAQAVIY MEHNAT STANDARTLARINING ISHLAB
CHIQILISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB AHAMIYATI**

G'offorova Kamola Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: gofforovakamola2020@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv va mehnat migratsiyasi kuchaygan XXI asr sharoitida mintaqaviy mehnat standartlarini ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan bo'lib, xalqaro mehnat standartlari yetarli bo'lmagan hollarda, ayniqsa, bir mintaqadagi davlatlar o'rtasida mehnat huquqlarini muvofiqlashtirish uchun mintaqaviy mehnat standartlari zarurligi ta'kidlanadi. Yevropa Ittifoqining 1961-yilda qabul qilingan Ijtimoiy Xartiyasi, Afrika Ittifoqi hujjatlari va boshqa mintaqaviy tashkilotlar misolida bu standartlarning huquqiy mohiyati, amaliy ahamiyati va bajarilish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida mehnat migratsiyasi ortib borayotgani mintaqaviy mehnat standartlari ishlab chiqishga ehtiyoj tug'dirayotganligi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro Mehnat Tashkiloti, mehnat migratsiyasi, ijtimoiy huquqlar, mehnat standartlari, migrantlar huquqlari, Xartiya, mintaqaviy mehnat standartlari, Yevropa, Afrika, transmilliy huquq.

**ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ
ТРУДА И ИХ СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЕГОДНЯ**

Гоффорова Камола Шухрат кизи

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: gofforovakamola2020@gmail.com

Аннотация: в данной статье обосновывается необходимость разработки региональных трудовых стандартов в условиях глобализации и возросшей трудовой миграции в XXI веке, а также подчеркивается необходимость региональных трудовых стандартов в случаях, когда

международных трудовых стандартов недостаточно, особенно в целях гармонизации трудовых прав между странами одного региона. Рассматриваются правовая сущность, практическое значение и механизмы реализации этих стандартов на примере Социальной хартии Европейского союза, принятой в 1961 году, документов Африканского союза и других региональных организаций. Также отмечается, что усиливающаяся трудовая миграция в странах Центральной Азии создает необходимость разработки региональных трудовых стандартов.

Ключевые слова: Международная организация труда, трудовая миграция, социальные права, трудовые нормы, права мигрантов, Хартия, региональные трудовые нормы, Европа, Африка, транснациональное право.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF REGIONAL LABOR STANDARDS AND THE CURRENT SIGNIFICANCE OF THEM TODAY

Gofforova Kamola Shukhrat kizi

Master's student of Tashkent State University of Law

E-mail: gofforovakamola2020@gmail.com

Abstract: *this article justifies the need to develop regional labor standards in the conditions of globalization and increased labor migration in the 21st century, and emphasizes the need for regional labor standards in cases where international labor standards are insufficient, especially in order to harmonize labor rights between countries in the same region. The legal essence, practical significance and implementation mechanisms of these standards are considered using the example of the Social Charter of the European Union adopted in 1961, documents of the African Union and other regional organizations. It is also noted that the increasing labor migration in the countries of Central Asia creates the need to develop regional labor standards.*

Keywords: *International Labor Organization, labor migration, social rights, labor standards, migrants' rights, Charter, regional labor standards, Europe, Africa, transnational law.*

XXI asr nafaqat texnik rivojlanish va innovatsiyalar asri, balki, globallashuv asri ham hisoblanadi. Ushbu globallashuv insonlarning bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga turli maqsadlarda, masalan, o'qish va ishlash kabi, ko'chib o'tishi bilan xarakterlanib, ayniqsa, ushbu holat ishlash uchun bir mamlakatdan boshqasiga ketayotgan va kelayotgan insonlarning mehnat huquqlari qanday tartibda ta'minlanadi degan savolni o'rta tashlaydi. Tarixan shakllanib kelgan xalqaro mehnat standartlari va Xalqaro Mehnat Tashkiloti xalqaro doirada mehnat standartlarini mustahkamlagan bo'lsada, amalda mintaqaviy mehnat standartlariga ham ehtiyoj tug'ila boshlagan, bunga ma'lum bir mintaqalardagi mehnat migratsiyasi va ushbu mehnat faoliyatini bir xil ravishda tartibga solishga bo'lgan talab sabab bo'lgan deyish mumkin.

Mintaqaviy darajada qabul qilingan mehnat standartlarining huquqiy o'ziga xosligi ularning xalqaro mehnat huquqining alohida yo'nalishlaridan biri bo'lib, ma'lum bir mintaqaviy hudud yoki integratsion tashkilot doirasida qabul qilinganligi hisoblanadi. Mintaqaviy mehnat standartlari mehnat me'yorlarining yuridik ahamiyati, amal qilish doirasi va ularni bajarishdagi majburiylik darajasini o'zida mujassam etadi. Ya'ni, mintaqaviy mehnat standartlari deganda ayni bir mintaqada joylashgan mamlakatlar o'rtasidagi tashkilotlar yoki ma'lum bir ittifoqqa birlashgan davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan xalqaro mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan, majburiy va tavsiyaviy xarakterdagi normalar yig'indisini tushunishimiz mumkin. Ushbu turdagi mehnat standartlarining ishlab chiqilishi

nafaqat ma'lum bir mintaqada hududidagi umumiy mehnat standartlariga ehtiyoj mavjud ekanligini, balki ushbu mintaqada doirasida integratsiya darajasining oshganligini bildiradi.

Mintaqaviy mehnat standartlarining ishlab chiqilishi – deganda ma'lum bir mintaqaga kiruvchi ya'ni bir mintaqadagi va bir-biriga qo'shni mamlakatlar o'rtasida mehnat huquqlari, ish sharoitlari, ijtimoiy himoya, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasi, shuningdek, ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yagona yoki uyg'unlashtirilgan me'yori va qoidalarni belgilovchi hujjatlar yoki kelishuvlar majmuasini tushunish mumkin. Mintaqaviy mehnat standartlarini ishlab chiqishdan asosiy maqsad ishchilar huquqlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini xalqaro mehnat muhofazasi standartlari bilan birxillashtirish, mintaqada umumiy farovonlik va iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda mintaqaviy integratsiya, buning natijasida esa, ishchi kuchi harakatini ma'lum bir mintaqada hududida muvofiqlashtirish kabi vazifalar hisoblanadi.

Pretoriya Universiteti professori Paul Smitning fikricha "Transmilliy munosabatlar dunyo siyosatiga deyarli barcha sohalarda ta'sir ko'rsatadi. Minglab xalqaro nohukumat tashkilotlar xalqaro rejimlar va davlatlararo tashkilotlarni o'z maqsadlari uchun, shu jumladan moliyaviy ko'mak uchun lobbi qiladi. Transmilliy munosabatlarning dastlabki tushunchasi deyarli davlatlararo munosabatlardan tashqari jahon siyosatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu shunday vaziyatga olib keladiki, ko'plab suveren milliy davlatlar o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalari va operatsiyalarini o'rnatishda bir tomonni olishga majbur bo'ldilar va bu o'z-o'zidan mintaqaviylikka olib keldi."¹ Professor fikridan

¹ Smit, P. (2015). Regional labour standards in the SADC: is it possible, given the EU experience?. Journal of Law, Society and Development, 2(1), 165-188.

shuni anglash mumkinki, har qanday mintaqada ham mintaqaviy qoidalar belgilanishi kerak, ushbu qoidalarining siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy sohada ekanligidan qat'iy nazar.

Mintaqaviy mehnat standartlarining vujudga kelish jarayoni ma'lum bir mintaqada umumiy mehnat standartlarini joriy etishga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi bilan o'zaro uzviy bog'liq hisoblanadi. Ma'lum bir mintaqada joylashgan mamlakatlarda umumiy mehnat muammolari, masalan, mehnatdagi ekspluatatsiya, mehnat migratsiyasi va mehnat xavfsizligi bilan bog'liq masalalarda yuzaga keladigan muammolarini vujudga kelishi mamlakatlarning mintaqaviy mehnat standartlarini ishlab chiqishga majbur qilishi mumkin. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida hozirgi kunda vujudga kelgan hamkorlik masalalarini misol qilib keltiradigan bo'lsak, ushbu mintaqada mamlakatlarning ushbu kabi xalqaro mehnat standartlarini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoji naqadar kuchli ekanligini sezish mumkin. Negaki, mintaqada o'zaro savdo faoliyati hamda mehnat migratsiyasi kuchli hisoblanadi. Bunday vaziyatda bir biriga qo'shni besh mamlakat tomonidan mintaqaviy mehnat standartlarini yaratish har bir mamlakat fuqarolari uchun foydalidir.

Mintaqaviy mehnat standartlari tarixan quyidagi mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilganligi va amaliyotda qo'llanilishi kuzatilgan:

- ✓ Evropa Ittifoqi – Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi.
- ✓ Afrika Ittifoqi– Afrika Xalqaro Mehnat Komissiyasi orqali.
- ✓ Amerika Davlatlari Tashkiloti – Amerika Mehnat Kodeksi loyihalari.
- ✓ Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi –mehnat va ijtimoiy himoya konvensiyalari.

✓ Arab Mehnat Tashkiloti– Arab davlatlari uchun umumiy mehnat standartlarini ishlab chiqadi.

Shuningdek, ma'lum bir mintaqada joylashgan mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga bo'lgan mushtarakligi ham mintaqada har qanday huquqiy soha, shu jumladan mehnat qonunchiligi va standartlari tartibga solinishini talab qiladi. Chunki, ushbu mustahkam iqtisodiy hamkorlikni istovchi mamlakatlarda inson huquqlari, jumladan mehnat huquqlari ta'minlanishi dastlabki, va eng elementar talab hisoblanadi. Negaki, umumiy bozorning mavjudligi, ishchi kuchining erkin harakatiga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi masalalari inobatga olinishi shart hisoblanadi. Firkimizga misol sifatida hozirgi kunda o'zining kuchli integratsiyasi bilan butun dunyoga tinch va muhofazalangan mintaqaviy hamkorlik timsoli sifatida vujudga kelgan Yevropa Ittifoqini keltirish mumkin.² Yevropa Ittifoqida ma'lum bir mamlakatda mavjud qoidalar boshqa bir Ittifoq mamlakati uchun ham bixillashirilishi asosiy shior hamda talab hisoblanadi. Chunki, mintaqaning ma'lum davlatida ish soati 36 soat bo'lsa, boshqa bir ittifoqqa kiruvchi mamlakatda ushbu miqdorning 48soat bo'lishi nomutanosiblik, raqobatda tengsizlik va norozilik keltirib chiqarishi tabiiy hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, mamlakatlarning mintaqaviy birlashuvi har qanday huquq sohasini, shu jumladan, mehnat qonunchiligini ham tartibga soluvchi umumiy mintaqaviy mehnat standartlarini joriy etishga olib keladi. Ushbu jarayonda dastlab, mintaqaviy mehnat standartlarini ishlab chiqish yuzasidan tashabbus ushbu mintaqada joylashgan mamlakatlar hukumatlari tomonidan yoki mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar va kasaba uyushmalari tomonidan

² Xalqaro mehnat huquqi.Darslik.Maxamatov.M, Rasulov.J.2024.
SJIF: 5.051

ilgari surilishi lozim bo'лади. Ushbu jarayonda mintaqadagi umumiy mehnat bozori, ishchilarning ahvoli, mavjud qonunchilik tahlil qilinib, o'rganib chiqilishi muhim vazifa hisoblanadi. Ilgari surilgan tashabbus yuzasidan mintaqadan kelishuv istagida bo'lgan mamlakatlar murosaga kirishishlari mumkin bo'лади. Ushbu vaziyatda murosaviy me'yorlar ishlab chiqilib, ushbu jarayon ijtimoiy dialog tamoyiliga asoslanadi. Bunda, har bir davlat o'zining siyosiy, iqtisodiy holatiga mos yechim taklif qilishi kerak va murosalar natijasi o'laroq mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, so'nggi natija sifatda odatda konvensiyalar, tavsiyalar va boshqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro hujjatlar qabul qilinadi.

Endigi masala ushbu konvensiyalar, tavsiyalar va boshqa xalqaro hujjat ko'rinishida qabul qilingan muhim ahamiyatli hujjatlarda belgilab qo'yilgan standartlarga moslashtirish hisoblanib, mintaqadagi a'zo mamlakatdan ushbu standartlarni o'z milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish talab etiladi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, mintaqaviy huquqiy standartlarni ishlab chiqish mamlakatlar uchun strategik ehtiyoj hisoblanadi, negaki, har qanday ishchi kuchining erkin harakati mavjud bo'lgan mintaqada, mehnat standartlari yagona bo'lishi hozirgi kun talabi. Yoki ushbu fikrni teskari talqinda tushuntiradigan bo'lsak, har qanday mintaqada aholi ko'chishlari yoki mehnat qilish maqsadida mintaqaviy boshqa mamlakatga ish izlab ko'chib o'tish kuzatilib bormoqda. Buni xoh Yevropa xoh Osiyo mamlakatlari misolida tushuntirish mumkin. Har ikkala mintaqada ham mamlakatlar fuqarolarining mintaqada joylashgan boshqa mamlakatga borib ishlash holatlari judayam ko'p uchraydi, bu esa, yagona mehnat standartlari yaratish va qabul qilishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Fikrimizga qo'shimcha sifatida 1961-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy huquqlar bo'yicha Yevropa Xartiyasi"ga ko'ra yana bir misol keltirish mumkin. Ushbu xartiyaning dastlabki qismidan boshlab mehnat huquqlari haqida so'z borib, migrantlar huquqlari haqida ham to'xtalib o'tiladi. Ushbu xartiyaning kirish qismiga e'tibor berilsa, 1-moddadayoq mehnat huquqi bo'yicha so'z yuritilib, jumladan, **"Mehnat huquqining samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Ahdlashuvchi Tomonlar to'liq ma'lumotga erishish uchun imkon qadar yuqori va barqaror bandlik darajasiga erishish va qo'llab-quvvatlashni asosiy maqsad va majburiyatlaridan biri sifatida qabul qilish, ishchining erkin faoliyat yuritadigan kasbda ishlash huquqini samarali himoya qilish, barcha ishchilar uchun bepul bandlik xizmatlarini tashkil etish yoki qo'llab-quvvatlash va tegishli kasbiy yo'nalish, o'qitish va reabilitatsiyani ta'minlash yoki rag'batlantirishni zimmasiga oladi"**³deb belgilangan bo'lib, bundan ko'rish mumkinki, butun mehnatga oid qoidalarining ahdlashuvchi tomonlar amal qilishi sharti bilan keltirilganligi va ushbu qoidalar mintaq hududida ishchilarning erkin mehnat faoliyatini ta'kidlayotganligi ham ushbu xartiyaning naqadar ahamiyatli va favqulodda muhim hujjat ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu xartiya mintaqaviy mehnat standartlari bo'yicha eng yorqin namunalardan biridir deyish mumkin. Umuman olganda ushbu hujjatda Yevropa mintaqasida joylashgan mamlakatlarda umum amal qilishi lozim bo'lgan shaxslarning ijtimoiy huquqlari, shu jumladan, mehnat huquqlari haqida so'z yuritilib, unda belgilangan mehnat standartlari yuqorida qayd etilganiday barcha Yevropa mamlakatlari uchun majburiy hisoblanadi.

³ European Social Charter Turin, 18.X.1961. <https://rm.coe.int/168006b642>.

Shuningdek, mintaqaviy mehnat standartlarining huquqiy tabiati quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Normativ-huquqiy xarakterga ega ekanligi. Ko‘plab mintaqaviy mehnat standartlari xalqaro shartnoma yoki konvensiya tarzida bo‘lib, uni ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun majburiy hisoblanadi.

Subsidiarlik printsipli asosida ishlashi bilan. Agar milliy qonunchilikda mehnat sohasiga oid yetarli normalar bo‘lmasa yoki ular mintaqaviy me‘yorlarga zid bo‘lsa, mintaqaviy me‘yorlar ustuvorlikka ega bo‘ladi (agar davlat ular bo‘yicha majburiyat olgan bo‘lsa).

Moslashuvchanligi bilan. Mintaqaviy standartlar milliy qonunchilikka moslashtirilgan bo‘lishi mumkin, shuning uchun ular umumiy tamoyillar asosida ishlab chiqiladi, biroq davlatlar ularni o‘ziga mos tarzda joriy etadi.

Integratsiyalashgan monitoring tizimi mavjudligi bilan. Aksariyat mintaqaviy tashkilotlarda standartlarga amal qilishni nazorat qiluvchi maxsus organlar mavjud (masalan, Yevropa Ijtimoiy Xartiyasining ijrosini Yevropa Kengashi Komissiyasi nazorat qiladi).

Mintaqaviy mehnat standartlarining ahamiyati ma‘lum bir mintaqadairasida ishchilarning huquqlarini barqaror himoya qilinishi, davlatlar o‘rtasida mehnat sohasidagi yondashuvlarni uyg‘unlashtirilganligi, mehnat migrantlarining huquqiy maqomini belgilashdagi muammolarga yechim taklif qila olganligi hamda mintaqada ichidagi mamlakatlarda ish sharoitlarini yaxshilashga rag‘batlantirish mexanizmining mavjudligi bilan namoyon bo‘ladi. Fikrimizga misol sifatida tadqiqotimiz davomida o‘rganilgan Yevropa mintaqasida joylashgan Yevropa komissiyasiga a‘zo bo‘lgan 47 mamlakat tomonidan ratifikatsiya qilingan 1961-yilda qabul qilingan Yevropa ijtimoiy huquqlar to‘g‘risidagi xartiyasini keltirish

mumkin. Ushbu xartiya deyarli barcha Yevropa mintaqasida joylashgan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan va quyidagi umumiy mintaqaviy mehnat standartlarining shakllanishi, rivojlanishi va mintaq mamlakatlarining milliy qonunchilik sohasida aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Ushbu xartiya orqali himoya qilingan ijtimoiy huquqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ Mehnat qilish huquqi;
- ✓ Adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqi;
- ✓ Kasaba uyushmalariga birlashish huquqi;
- ✓ Ishsizlikka qarshi himoyadan foydalanish huquqi;
- ✓ Ayollar va bolalarni himoya qilish, asosan ular mehnatining himoya

tizimini ishlab chiqish huquqi.

Bundan tashqari, Afrika Ittifoqida ham ishchi migratsiyasi muammolari, norasmiy mehnat keng tarqalgani uchun, umumiy mehnat kodeksi zarurligi ta'kidlanadi⁴. Yoki, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yuzaga kelayotgan mehnat migratsiyasi, ayniqsa, Rossiya Federatsiyasida va Qozog'iston Respublikasida Markaziy Osiyodan, ayniqsa O'zbekistondan borib ishlovchi mehnat migrantlarining huquqlarini ta'minlash masalasini ham keltirib o'tish mumkin.

Ammo, mintaqaviy mehnat standartlari qabul qilinishi va qo'llanilishi sohasida muammolar ham yo'q emas. Masalan, tarixiy kuzatuvlarga ko'ra, barcha davlatlar ham mintaqaviy mehnat standartlariga qo'shilmaydi, ya'ni mintaqaning barcha mamlakatlarida bir xil qoidalarni yo'lga qo'yish mushkul vazifa hisoblanadi.⁵ Chunki, biror mamlakat xohlamasa, xalqaro yoki mintaqaviy konvensiya yoki boshqa xalqaro tusga ega bo'lgan hujjatni qabul qilishga majbur

⁴ ARLAC. <https://www.arlac.co.zw/overview/>.

⁵ Sengenberger, W. (2005). Globalization and social progress: The role and impact of international labour standards. Bonn: Friedrich-Ebert-Stiftung.

hisoblanmaydi, chunki har bir mamlakatda suverenitet mavjud va bu davlatning tashqi va ichki siyosatda mustaqilligini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy mehnat standartlari mintqa ichida barqaror, adolatli va raqobatbardosh mehnat bozorini yaratishga xizmat qiluvchi huquqiy va ijtimoiy mexanizm hisoblanib, ular xalqaro tajriba, mintaqaviy ehtiyojlar va milliy qonunchilik asosida shakllanadi hamda ko'p tomonlama kelishuvlar orqali amaliyotga joriy qilinadi. Mintaqaviy mehnat standartlari ma'lum bir mintqa mamlakatlarida migrantlar uchun favqulodda muhim, birxillashtirilgan qoidalarni belgilab berib, shaxslarning mintaqadagi qay davlatda mehnat faoliyatini yuritmasin mehnat huquqlarining adolatli ta'minlanishi va mintqa integratsiyasiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Smit, P. (2015). Regional labour standards in the SADC: is it possible, given the EU experience?. Journal of Law, Society and Development, 2(1), 165-188.
2. Sengenberger, W. (2005). Globalization and social progress: The role and impact of international labour standards. Bonn: Friedrich-Ebert-Stiftung.
3. Xalqaro mehnat huquqi. Darslik. Maxamatov, M., Rasulov, J. 2024.
4. European Social Charter Turin, 18.X.1961:
<https://rm.coe.int/168006b642>.
5. International Labour Organization. International Labour Standards. -
<https://www.ilo.org/international-labour-standards>.
6. ARLAC. <https://www.arlac.co.zw/overview/>.